

ULUG'BEK HAMDAMNING ASARLARIDA XRONOTOP METAFIZIK STRUKTURA SIFATIDA

Abduxoliqova Zebuniso O'tkir qizi,

FarDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Maqola yozuvchi Ulug'bek Hamdamning asarlarida badiiy makon va zamon (xronotop)ning kompleks tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqot markaziga dualizm va olamlarning o'zaro kesishuviga qurilgan murakkab tartibli xronotop tizimining falsafiy semantikasi va badiiy vazifalarini aniqlash qo'yilgan. Tadqiqot metodologiyasini M.M.Baxtinning xronotop nazariyasi hamda semiotik va mifopoetik yondashuvlar tashkil qiladi. Adib asarlarida xronotop voqealarning faol ishtirokchisi, qahramon ichki konfliktining moddiylashuvi va syujet yaratuvchi muhim unsur ekanligini isbotlanadi. Asar matnidagi barcha makon-zamoniylar strukturallarning rivojlanish mantig'ini ta'minlovchi ustuvor unsur bosh qahramon ismining ramziyligiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ijodkor, konsepsiya, xronotop, makon, zamon, dualizm, alanga, ramziylik, talqin, mahorat.

В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ УЛУГБЕКА ХАМДАМА ХРОНОТОП КАК МЕТАФИЗИЧЕСКАЯ СТРУКТУРА

Абдухоликова Зебунисо Уткир кизи,

Независимый исследователь ФерГУ

Аннотация. Статья посвящена всестороннему анализу художественного пространства и времени (хронотопа) в произведениях писателя Улугбека Хамдама. В центре исследования – выявление философской семантики и художественных задач сложной иерархической хронотопной системы, построенной на дуализме и пересечении миров.

Методология исследования сформирована теорией хронотопа М.М. Бахтина, а также семиотическим и мифопоэтическим подходами. Доказано, что в произведениях писателя хронотоп является активным участником событий, материализацией внутреннего конфликта героя и важным элементом, создающим сюжет. Особое внимание уделяется символике имени главного героя, важнейшему элементу, определяющему логику развития всех пространственно-временных структур в тексте произведения.

Ключевые слова: создатель, концепция, хронотоп, пространство, время, дуализм, пламя, символика, интерпретация, мастерство.

IN THE WORKS OF ULUGH'BEK HAMDAM CHRONOTOP AS A METAPHYSICAL STRUCTURE

Abdukholikova Zebuniso Utkir kizi,

Independent researcher of FerSU

Annotation. The article is devoted to a comprehensive analysis of artistic space and time (chronotope) in the works of the writer Ulugbek Hamdam. The focus of the research is on identifying the philosophical semantics and artistic tasks of a complex hierarchical chronotope system built on dualism and the intersection of worlds. The research methodology is formed by M.M. Bakhtin's chronotope theory and semiotic and mythopoetic approaches. It is proved that in the works of the writer, the chronotope is an active participant in events, the materialization of the hero's internal conflict and an important element that creates the plot. Special attention is paid to the symbolism of the name of the main character, the priority element that provides the logic of the development of all spatio-temporal structures in the text of the work.

Key words: creator, concept, chronotope, space, time, dualism, flame, symbolism, interpretation, skill.

XXI asr o'zbek adabiyoti va adabiyotshunosligida o'ziga xos o'rin olgan

iste'dod sohiblaridan biri Ulug'bek Hamdamdir. Yozuvchining turli janrdagi asarlari badiiyat mezonlarini yangilanishiga ma'lum darajada asos bo'ldi. Yozuvchining har bir asari ijodkorning badiiy olamine kashf etish imkonini bertadi.

Adabiyotshunos H.Umurov qayd qilganidek: "Epik tur (jumladan, roman janri) hayotning keng ko'lamda qamrab olishi va o'zida inson ichki dunyosini, uning sirlarini chuqur va batafsil tasvirlashga to'liq imkoniyatga egaligi bilan janrlar orasida etakchilik qiladi" [1, 6-bet]. Ta'kidlanganidek, ijodkorning bir qator romanlarida inson qismati, uning ruhiy-ma'naviy qiyofasi juda go'zal talqin etilgan.

Yoki adabiyotshunos A.Nasirov ta'kidlaganidek: "Ulug'bek Hamdamning "Sabo va Samandar" romani o'zbek adabiyotida o'ziga xos yangicha hodisalardan bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Adib o'z romanini mumtoz an'analar ruhida yozishni ma'qul ko'rdi" [2, 147-bet] kabi e'tiroflarda ham asosli tushunchalar mujassamlashgan.

Ulug'bek Hamdamning badiiy asarlari chuqur psixologizm, falsafiy teranlik va badiiy shakldan yuqori mahorat bilan foydalanish xususiyatlariga ko'ra ajralib turadi. "Keyingi davr o'zbek nasri haqida so'z borarkan, kishi e'tiborini, avvalo, bu jarayondagi rang-baranglik o'ziga tortadi. Zero, milliy adabiyotimizda yaratilayotgan asarlar nafaqat mazmun mohiyatiga ko'ra, balki ifoda shakllari jihatidan ham xilma-xillik kasb etadi, - deb yozadi adabiyotshunos Sag'dulla Quronov" [3, 21-bet].

Davr adabiyotidagi yangilanishlar, badiiy talqinlar zamirida ham ijodkor konsepsiyasi va badiiy mahoratini ham inobatga olmoq lozim. Har bir ijodkor yangicha qarashlarni poetik ifodalarni yuzaga chiqarishga intiladi. Shu jihatdan, Ulug'bek Hamdam ijodining o'ziga xosligini ham qayd etish kerak. Uning roman, qissa, hikoya janridagi asarlarining mohiyati ham shu tushunchalar bilan uzviy bog'liqdir. Adibning har bir asari adabiyotimiz uchun yangilikgina emas, balki ijodiy jarayonning murakkab qirralarini ham namoyon etishga xizmat qilib kelmoqda.

Bunga adibning “Otash” hikoyasi yorqin misoli bo‘lib, asarda bebaxt muhabbat va ijodiy muvaffaqiyatsizlikdek xususiy voqealar musavvir-yaratuvchi obrazining mukammalligi yoki o‘z stixiyasining qurboni haqidagi universal mif darajasiga ko‘tarilishini qayd qilish mumkin. Badiiy asarning murakkab tashkil etilgan makon-zamoniyligi shunday ko‘tarilishni ta’minlovchi markaziy mexanizmdir. Xronotop hikoyada voqea-hodisalarni muayyan makon va zamonga bog‘lishdan tashqari mustaqil personajga, qahramonni shakllantiruvchi, sinovchi va oxir oqibat yutib yuboruvchi muhitga aylanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi “Otash” hikoyasining xronotopini detallashtirib tahlil qilish va uning sathlarini, ichki ziddiyatlarini, ramziy kodlarini va syujet yaratuvchi funksiyalarini aniqlashdan iborat. Tahlillar asosida xronotopni adabiyotda badiiy o‘zlashtirilgan zamon va makon munosabatlarining jiddiy o‘zaro aloqasi sifatida tushunish kabi M.Baxtin tushunchasi yotadi [4,136-bet].

Ulug‘bek Hamdamning hikoyasi uchun yo‘l yoki ostonaga kabi ambivalent xronotop emas, balki bo‘linish va “men” chegarasidan chiqish masalasi markaziy hisoblanadi. Bu matnda makon va zamon uyg‘unligi kuzatilmaydi, aksincha, ular shaxsning ekzistensial ziddiyatlarini aks ettiruvchi kuchli qarama-qarshiligida mavjuddir. Bu asarning polixronotopikligi xususida fikr yuritish imkonini beradi va bunda turli xronotop modellari (real, psixologik, mifopoetik) bir-birining ustiga qatlamlanib, ma’no chuqurligi hamda ko‘p o‘lchamlilik hosil qiladi. Metodologik jihatdan bu struktur tahlil (oppozitsiyalarni aniqlash)ni ramzlarni (olov, daraxt, surat) germevtik talqin qilish uyg‘un olib borishni talab qiladi.

“Otash” hikoyasida makon qat’iy tartiblangan va bir-biriga qarama-qarshi sathlardan tashkil topgan. Uni o‘zaro kesishuvchi, ammo ziddiyatli maqomdagi uch sathga ajratish mumkin: haqqoniy (zohiriy), psixik (botiniy) va ramziy. Haqqoniy yoki hayotiy makon qamoqxona va ibodatxona ma’nosida talqin qilinib, bunda kasalxona hukm va mahbuslik xronotopidir. Bu erdan boshlanadigan hozir va xotirlanib, qayta anglashiluvchi o‘tmish kuzatiladi. Uning tavsiflari jiddiy salbiy ma’noli: chegaralanganlik va nazorat ostidalik:

“Palata deyilgani oynavand to’siqlar qo‘yilgan alohida bo‘limlardan iborat

bo'lib, chamasi Otashning ham o'ng, ham so'l tomonida yana qator shunday ajralmalar tizilgandi". Jismoniy va ruhiy boshqalardan ajratib qo'yilgan bemorlar uchun oynavand to'siqlar shaffoflik ro'yosini hosil qiladi. Biroq qahramon nazorat ostida va uning mavjudligi tartiblangan. Sun'iy yorug'lik, dori-darmonlar hidi, araqachalar shovqini jonli tabiat kuchlariga qarama-qarshi qo'yilgan.

Bu erda otashning shaxsi emas, "bemor Nabiev"ning qiyofasiz ijtimoiy surati hisobga olinadi. Qarindoshchilik munosabatlari ham bu bo'linish, yolg'izlanishni yanada kuchatiradi: "Otash ukalariga qaradi: ular ko'zlarini olib qochishga behuda urinishayotgani shundoq yuz ifodalaridan ayon edi. Biri yuzini deraza tomonga burgan (lekin u yerda hech nima ko'rinmas — shom tushib bo'lgandi), boshqasi bo'lsa, kursida omonatgina o'tirgan ko'yi tuflisining tagcharmiga qaragan kishi bo'lib vaqtni cho'zmoqqa tirishardi".

Hikoya boshida xushsiz topilib, kasalxonaga keltirilgan qahramon gapirolmas va harakatlana olmaydi. Kasalxona uning botiniy olovini so'ndirib, so'nib borishdek ojizlik makoniga aylanadi. "Yoshi qirqni qoralab qolganiga qaramay so'qqabosh yashasa, ustiga ustak, ulkan shahardan chetda — istiqomatchilari birin-sirin manguga tark etgan, bugunga kelib nurab bitayozgan xaroba qishloqda moxovdek bir o'zi tursa, kim ham uning hushsiz yotganidan xabar topardi deysiz". Vayronaga aylanib borayotgan qishloq erkinlik va ijodiy tarkidunyochilik xronotopiga aylanadi. Asar yakunida ham qahramon o'tmishning jamiyat tomonidan rad etilgan ushbu makoniga ketadi. Bu makonda yolg'iz hayot kechirish uning botiniy yolg'izligiga monand ongli tanlovi edi. Qoidalar va shartliliklardan holi manzil. Musavvirning ustaxonasi muqaddas markaz sifatida talqin qilinganda kasalxonadagi katakdan farqli o'laroq bu makonda Otash bemor emas, balki yaratuvchidir.

Bu ijod va muhabbat alangasi o'chmaydigan ibodatxona demak. Ushbu ibodat manzili, ustaxona hikoya yakunida muqaddas qurbonlik makoniga aylanadi: "Otash jon achchig'ida chaqmoqni yondirdiyu ustaxonaning to'rida ilingan hashamdor hoshiyali suratga - o'ziga jilmayib boqib turgan Ayol suratiga qarab otdi... Olov bir silkinib oldi-da, baravj yongancha suratni yamlay boshladi. Oldin

ayolning sarvdek vujudi, qo'ng'iroq sochlari, keyin oydek yuzi yondi. Faqat... faqat ko'zlarigina yonmasdi. Ular tillarang olovning ayovsiz qilichlaridan omon qolayotgandek tuyuldi. Otash ularga - ko'zlarga nimadir demoqchi, balki ulardan nimanidir so'ramoqchi, o'tinmoqchi bo'ldi. Bo'ldiyu, og'iz ham ocholmay tutildi: chunki... chunki ko'zlar olovning taftida o'zgarib, ularda muhrlangan ma'no evrildi - ayolning, bir paytlar Otashga cheksiz muhabbat ila boqqan o'sha ayolning sohir ko'zlari qahraton qishning eng ayoqli kunidek sovuq yiltillab o'tdi. Va xuddi shu lahzada olovning qo'li baland keldi: ko'zlar olovga yem bo'ldi..." Ushbu soniyalarda makonning yakuniy evrilishi yuz berib, u qahramon stixiyasi – olovga qo'shilib ketadi.

Ruhiy makon sifatida hikoyada foydalanilgan xotira va tush motivlarini misol keltirish mumkin. Odatda tush va alahsirash holatlari ruhiy jarohat va echimsiz ziddiyatning quyuqlashgan ramziy voqelik qonuniyatlari ishlaydigan xronotopi hisoblanadi. Otash sevgilisi Soliyani tushlarida, kasallik ta'siridagi alahsirashlarda ko'radi, chorlaydi, lekin ayol uni eshitmaydi. Ularni ko'zga ko'rinmas, ammo engib ham bo'lmas chegara ajratib turadi: "Tush ko'ribdi. Yana o'sha tanish manzara... o'sha ayol - Soliya. Otash zo'r berib, ovozining boricha chaqirarmish: - Soliya!... Soliya!.. - Lekin ayol eshitmasmish. Oradagi masofa u qadar uzoq emas, baqirish u yoqda tursin, astagina «Soliya» desa ham eshivilishi kerakdekmish-u...

Otash o'z uyida emish, Soliya bo'lsa shahar va shu uy o'rtasida nimalardir qilib yurganmish. Otash azbaroyi qiziqqanidan shu qarab ham Soliyaning nima ish qilayotganini tushuna olmasmish. Bir qarasa, u o'ta muhim yumush bilan bandga o'xsharmish, bir qarasa, ayol shunchaki u yoqdan bu yoqqa bo'sh-bayov kezib yurgandekmish. Lekin Otash uni haliyam chaqirarmish. O'zi esa turgan joyidan jilmasmish. Jilishi mumkin emasmish. Chunki u chegaraga - o'zi Solihaga yaqinlashishi mumkin bo'lgan sarhadga kelib qolganmish. U yog'iga yurishi mumkin emasmish negadir. Soliha bo'lsa... Soliha bu tomonga odim bosish u yoqda tursin, Otashning iztirob bilan baqirib-chaqirishlariga bir qiyo boqib ham qo'ymabdi. Butun kuchini to'plab yana «Soliya!!!» deya jonining boricha

chaqiribdi va to'satdan bo'g'zi yirtilib, og'zidan sharillab qon oqa boshlabdi. Shundan keyin u Soliyaning ismini ayta olmay qolibdi - bundan esa holi yomonlashibdi..." Tushlar takrorlanib turishi; qichqiriq, qon ketishi, ayriliq bitmayotgan jarohat va ongning sevishganlar ajralishgan nuqtada qotib qolganidan darak beradi.

Suratlarni ideal xronotopi va ruhiy muloqot yo'lak (portal)lari sifatida talqin qilish mumkin. bu botiniy olamni moddiylashgan ko'rinishi va hayot bilan xayolot orasidagi ko'priq vazifasini o'taydi. Daraxt chizilgan surat markaziy hisoblanadi. Bu asosiy makon va zamon ustidagi sath: "...Otash yotaverib zerikib ketdi. Keyin beixtiyor ravishda cho'zilib tumbochkani ochdi-da, ichidan qog'oz va qalam chiqardi. Tashqarida bir maromda tebranib qo'shiq aytayotgan va o'z qo'shig'i ohangiga mos tarzda raqs tushib orolanayotgan daraxtning suratini chiza boshladi. Ilgari ham u daraxt rasmini ko'p ishlagan, umuman, uning chizgan suratlarining yarmi Soliyaga bag'ishlangan bo'lsa, qolgan yarmida daraxt bor edi. Lekin nega bunday, o'zi ham bilmasdi".

Biroq "yuragi muhabbatga to'lib-toshgan damlarida suratda Soliyani, qolgan vaqtlarda esa daraxtni ko'rayotgan edi". Tabiiy, boqiy xronotop bo'lgan daraxt va shaxsiy-intim, yo'qotilgan xronotop Soliya bir obrazda mujassamlashadi. Tasvir, ya'ni surat o'z hayoti bilan yashamoqda. Ma'lum ruhiy holatda Soliya suratdan ajralib chiqib, jonli inson qiyofasini kasb etishi, keyin birdan g'oyib bo'lishi mumkin. go'yo surat qahramon ruhiy holatining tashhisiga aylanib boradi. SHu bilan birga suratlar muhabbat va ijodiy ilhom boqiyga muhrlangan xronotopdir. Ularni yoqib yo'q qilarkan, Otash o'zining vaqtini to'xtatish, o'tmishni saqlab qolishga urinishlari behudaligini anglab etadi.

Hikoyada tasvirlangan arxetipik tabiat manzaralari ramziy makonni tashkil etadi. Masalan, daraxt (bog', daraxtzor) boqiy umr va hayotiy donishmandlik xronotopidir. Asarda bu Soliyaning muqobil "men"i, olov-Otashning ma'naviy antipodi, markaziy tabiiy timsol hisoblanadi. Daraxt ko'p qiyofali ramz: hayotiy (jilg'a bo'yida), chizilgan (suratda), xotiralarda (tundagi bog'). Bundan tashqari daraxt ilohiy vositachi vazifasini ham bajaradi. Mifologiyada ham daraxt

obrazining ushbu jihati alohida taekidlab o'tiladi. Zero, u olamlar, o'lchamlar, sathlar aro o'tish vositasi. "Otash" hikoyasida ham darax samoviy va zaminiy, foniy va boqiyni birlashtiruvchi xronotopik tugundir. Otashning ongida Soliya va daraxt ajralmasdir hamda mana shu singib ketish fojiani anglashga kalit vazifasini o'taydi: "Soliya, biz bir-birimizni nega yo'qotganimizni endi tushunib yetdim. Sen bilan ajralishgan o'sha mash'um kunda ko'zlarimiz faqat va faqat daraxtni ko'rgan ekan. Biz o'sha kuni bir-birovimizni ko'rolmay qolgan ekanmiz..."

Tahlil jarayonida Ulug'bek Hamdam o'z nasrida ko'p qo'llaydigan chegara xronotopi ham aniqlandi: hayotda bu Soliya kirib kelmaydigan kasalxona eshigi, tushda etolmaslik, metafizik jihatdan olib qaralganda esa hayot va o'lim, haqiqat va xayol, o'z va o'zga orasidagi chegaralardir.

Hikoyaning zamoniyligi strukturasi ham makoni singari murakkab va ziddiyatli yaratilgan. U Hamdam qo'llagan badiiy zamonning o'zaro kurash holatidagi to'rt sathini alohida ajratish mumkin.

1. Bir chiziqli vaqt: tashqo olamning ob'ektiv, shafqat bilmas zamoni. Uning chizig'i yoshlikdan keksalikka tomon yo'naltirilgan bo'lib, belgilari qahramonning yoshi (Yoshi qirqni qoralab qolgani), tashhis (u — uzoqqa bormaydi), aniq vaqt (Ikki-uch kun...) kabilardir. Asar yakunida qahramon kasalxonadan qochib ketib, mana shu bir chiziqli vaqtga qarshi chiqadi.

2. Davriy, mifologik zamon – tabiat bilan bog'liq vaqt tushunchalari. U daraxt va tabiat fasllarida o'z tajassumini topadi. "Xazon yaprog'iga, ey bog'bon, emassen mone"... Bu zamon abadiy va doim takrorlanib turuvchidir. Bunday boqiy zamon insonning qoniy umriga qarshi qo'yiladi.

3. Shaxsiy kechinmalar zamonini psixologik xronotop sifatida baholash mumkin. Ba'zida xotiralar vaqti cho'zilib ketib, hozirgi zamondan jonliroq manazara ko'z oldimizga keladi. Misol uchun, Soliya uchun bir necha yigitlar bilan mushtlashuv, oshiqlarning dialogi bilan bog'liq kechinmalar xotirlanishi kasalxonadagi tashvishlarni unuttiradi. Oxirida Soliyani kutish ekzistensial portlashni tayyorlab boradi. Umidning o'lim onlari bo'lgan ushbu lahzalarda Otashning yurak urishi kutish daqiqalariga bog'liq bo'lib qoladi.

4. San'at zamoni Ulug'bek Hamdamning abadiyatni miniatyurada yaratishga urinishida namoyon bo'ladi. Musavvir ustaxonasida vaqt mo'yqalam vositasida to'xtatilgan. Biroq bu holat o'ta omonat, moddiyat juda mo'rt. Olov zamoni haqida alohida to'xtalish lozim. Bu kulminatsion, poklovchi soniyalar. Asar yakunida shungacha bo'lgan barcha zamon chiziqlari (bir chiziq – hayot, ruhiy – iztirob, badiiy – tasvirlangan muhabbat) bir nuqta – o'ziga o't qo'yishga kelib birlashadi. Bu kutilgan, bir chiziqli davom etgan hodisalarning yakuni emas, bu portlash. Olov kechinilgan butun zamonni bir yarq etgan nuqtada jamlaydi.

Qahramon ismining ramziyligi butun asarga semantik va struktur kalit bo'lib xizmat qiladi. Otash makon va zamon rivojining mantig'ini o'ziga bo'ysundirib, metaforik ustuvor ma'no-mohiyatni belgilab beradi. SHunga bog'liq holda xronotop ushbu stixiya uchun sahna vazifasini o'taydi. Kasalxona olovni o'chirishga harakat qilsa, ustaxona erkin yonishiga yo'l qo'yib beradi. Tabiat ham yoqilg'i, ham qarama-qarshi stixiyani anglatadi. Otashning hayot yo'li olov yo'li kabi: yolqin – Soliya va san'at bilan uchrashuv, alangalanish – ijod jarayoni, so'nish – hastalik, so'nggi yolqin – o'ziga o't qo'yish.

Otash va Soliya – olov va daraxt binar oppozitsiyasi ham asar mohiyatini tushunishda muhim o'rin tutadi. Olov erkaklik, faollik, ma'naviy, poklovchi, vayron etuvchi ibtido. Daraxt ayollik, nafaol, tabiiy, yangilanuvchi, o'zgaruvchi ibtido. Bularning muhabbati ikki stixiyaning qo'shilishga urinishi, lekin hayotiy voqelikda olov yog'ochsiz so'nadi yoki yog'ochni yoqib yuboradi. Faqt ideal olamda, chizilgan suratda, badiiy makonda ular birga bo'la olishadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ulug'bek Hamdamning "Otash" hikoyasida xronotop yuqori darajada puxta tartiblangan, dinamik va semantik boy tizimdan iborat. Dualizm, konflikt va o'zaro singish tamoyillariga qurilgan xronotop ma'no yaratuvchi vazifa bajaradi. Makon va zamon bu asar matnida bir vaqtning o'zida qamoqxona (kasalxona xronotopi), ibodatxona (ustaxona), boqiylik (daraxt) va erkinlik (olov) mohiyatlarida qahramon qismatini shakllantiruvchi faol vositalarga aylantirilgan.

Адабиётлар:

1. Умуров Ҳ. Қаҳрамоннинг маънавий олами ва эпиклик. Рисола. – Тошкент, 1995. – 48 бет.
2. Nasirov A. O'zbek romanchiligi. Darslik. – Samarqand, SamDU nashri, 2023. – 208 bet.
3. Қуронов С. Ифода ва ифодавийлик. Рисола. – Тошкент, Akademnashr, 2013. – 88 бет.
4. Бахтин М. М. Формы времени и хронотопа в романе // Бахтин М. М. Вопросы литературы и эстетики. – М.: Художественная литература, 1975.
5. Лотман Ю. М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М.: Языки русской культуры, 1996.
6. Мелетинский Е. М. Поэтика мифа. – М.: Наука, 1976.
7. Насиров А. Н. Одил Ёкубов романлари поэтикаси. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Самарқанд, 2018. – 70 б.
8. Turumova N. Ulug'bek Hamdam va Frans Kafka nasrida badiiy makon va zamon yaxlitligi. F.f.b. fal.d (PhD). diss. avtoref. – Guliston, 2025. – 52 b.
9. Тўраева Б. Замонавий романчиликда хронотоп поэтикасининг қиёсий-типологик тадқиқи. Филология фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. – Бухоро, 2022. – 72 б.
10. <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/ulugbek-hamdami/ulugbek-hamdami-otash-hikoya/>